


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI..... | 14 |
| Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich | |
| AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING O'RNI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA) | 19 |
| O'roqov Mamurali Odil o'g'li | |

UDK: 658.114.45:005.35

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV MENEJMENTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI

**Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Innovatsion menejment kafedrasida assistentiE-mail: d.xabibullayev@tsue.uz

ORCID: 0009-0003-0507-4340

Annotatsiya. Ma'lumki bugungi kunda mamlakat raqobatbardoshligini oshirish hamda uning jahon hamjamiyatidagi siyosiy va iqtisodiy rolini kuchaytirish yo'lidagi asosiy shart bu — barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Shu nuqtai nazardan takidlash joizki iqtisodiy o'sishning tayanchi bo'lib hizmat qiluvchi qatlamlardan biri bu albatda korporativ sektor hisoblanadi.

Yangi iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida global raqobat ustunligini saqlab qolish, ishlab chiqarish hajmi va sur'atlarini oshirish, mahsulot sifati bo'yicha yuksak natijalarga erishish jarayonidagi xalqaro kompaniyalarning bugungi chaqiriqlarga munosib javob bera olish uchun korxonalarda bugungi kunda rivojlangan va samarali korporativ boshqaruv tizimi hamda korporativ menejmentning yangi usullari va vositalari joriy etilishi talab etilmoqda. Hatto rivojlangan iqtisodiyotlarda ham samarali korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishida korporativ menejmentning barqaror rivojlanish vazifalarini hal etishdagi o'rni zarur hisoblanmoqda.

Mazkur maqola aynan korporativ menejment nazariyasining asosiy masalalariga bag'ishlangan materiallarini o'z ichiga oladi. Ushbu materiallar samarali korporativ menejmentni korxonaning barqaror rivojlanish vazifalarini hal etishdagi o'rnini tushunishda foydali bo'ladi.

Kalit so'zlar: Korporativ boshqaruv, Korporativ boshqaruv tizimi, Korporativ menejment, Korporativ huquq, mulkchilik strukturasi, menejment, generatsion menejment, funktsionl menejment, strategik menejment, operatsion menejment

Аннотация: В современных условиях обеспечение устойчивого экономического роста является одним из ключевых факторов повышения конкурентоспособности страны и укрепления ее позиций в мировой экономике. В данном контексте корпоративный сектор выступает важнейшей основой экономического развития. В статье исследуются теоретические основы корпоративного менеджмента, его сущность, функции и роль в системе корпоративного управления акционерных обществ.

Особое внимание уделено значению корпоративного менеджмента в обеспечении устойчивого развития предприятий, повышении их конкурентоспособности, инвестиционной привлекательности и эффективности деятельности. На основе анализа научной литературы, международных стандартов и современных концепций корпоративного управления раскрыты основные подходы к пониманию корпоративного менеджмента и его места в системе управления корпорациями.

Ключевые слова: корпоративное управление, система корпоративного управления, корпоративный менеджмент, корпоративное право, структура собственности, менеджмент, генеральный менеджмент, функциональный менеджмент, стратегический менеджмент, операционный менеджмент.

Abstract: In the contemporary economic environment, ensuring sustainable economic growth is one of the key prerequisites for enhancing national competitiveness and strengthening a country's position in the global economy. In this regard, the corporate sector serves as a fundamental driver of economic development. This article examines the theoretical foundations of corporate management, its essence, functions, and role within the corporate governance system of joint-stock companies.

Particular attention is paid to the importance of corporate management in ensuring sustainable business development, increasing competitiveness, improving investment attractiveness, and enhancing organizational performance. Based on a comprehensive analysis of academic literature, international standards, and modern corporate governance concepts, the study identifies the main approaches to understanding corporate management and its position within corporate governance structures.



Key words: corporate governance, corporate governance system, corporate management, corporate law, ownership structure, management, general management, functional management, strategic management, operational management.

KIRISH

Ma'lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Korporativ mulkchilik munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi, ayniqsa aksiyadorlik jamiyatlarini shakllantirish jarayonining chuqurlashuvi, xususiy sektorning o'sishi va qulay biznes muhitining yaratilishi ushbu sohaning iqtisodiyotdagi roli va mas'uliyatini yanada oshirmoqda.

Korporativ boshqaruvning samaradorligi kompaniyaning umumiy rivojlanishi, raqobatbardoshligi va barqarorligi uchun hal qiluvchi omildir. Bu samaradorlik bir qator o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi omillarga, xususan, korporativ menejmentga tayanadi. Birinchidan, kompaniya o'z missiyasi, strategik maqsadlari va rivojlanish yo'nalishlarini doimiy ravishda tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashtirib borishi lozim. Ikkinchidan, tashkilotning strukturasi biznes jarayonlarini optimal tarzda tashkil etishga xizmat qilishi hamda minimal resurs sarfi evaziga maksimal natijaga erishishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Biroq, ushbu jarayonda hal etilishi lozim bo'lgan muhim muammolar mavjud. Jumladan, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatidan olinadigan daromadlarni adolatli taqsimlash, boshqaruv tizimining samaradorligi, moliyaviy shaffoflik, korporativ madaniyat va mas'uliyat kabi masalalar o'z yechimini kutib turibdi. Mazkur muammolarni hal etish nafaqat korporativ tuzilmalarning samarali faoliyat yuritishi, balki butun iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun ham muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, yuqori malakali, natijaga yo'naltirilgan va samarali hamkorlik qila oladigan xodimlar jamoasi kompaniyaning eng muhim kapitalidir. Bularning barchasini to'ldiruvchi omil esa zamonaviy texnologiyalarga asoslangan korporativ menejment tizimi va kuchli korporativ madaniyat bo'lib, ular rahbarlik uslubi hamda jamoaviy faoliyat orqali butun kompaniya faoliyatini yagona strategik yo'nalishga safarbar etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ menejment nazariyasining shakllanishi mulkchilik va boshqaruvning ajralishi jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Ushbu masala ilk bor Adolf Berle va Gardiner Means tomonidan o'rganilib, yirik aksiyadorlik jamiyatlarida mulkdorlar va menejerlar manfaatlarini o'rtasida tafovut yuzaga kelishi asoslab berilgan [1].

Korporativ menejmentning nazariy asoslari keyinchalik agentlik nazariyasi orqali yanada rivojlantirildi. Michael Jensen va William Meckling (1976) aksiyadorlar (prinsipallar) va menejerlar (agentlar) o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilib, menejerlarning shaxsiy manfaatlarini kompaniya egalari manfaatlarini bilan har doim ham mos kelmasligini ta'kidladilar [2].

Korporativ menejmentga nisbatan zamonaviy yondashuvlardan biri manfaatdor tomonlar nazariyasi hisoblanadi. Mazkur nazariya asoschisi R. Edward Freeman korporatsiya faoliyatining muvaffaqiyati nafaqat aksiyadorlar, balki xodimlar, mijozlar, kreditorlar, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olish bilan bog'liqligini asoslab beradi [3]. Ushbu yondashuv korporativ menejmentning maqsadini kompaniya qiymatini oshirish bilan bir qatorda manfaatdor tomonlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash sifatida talqin etadi.

Korporativ menejmentning amaliy jihatlari Robert A.G. Monks va Nell Minow tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mualliflar korporativ menejmentni aksiyadorlar manfaatlarini himoya qiluvchi va korporatsiya faoliyatining uzoq muddatli samaradorligini ta'minlovchi boshqaruv tizimi sifatida baholadilar [4].

Empirik tadqiqotlarda korporativ menejment sifati va kompaniya natijalari o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Xususan, Rafael La Porta va hammualliflari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda investorlar huquqlarining himoyalani darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda korporatsiyalarning bozor qiymati va investitsion jozibadorligi yuqoriroq bo'lishi isbotlangan [5].

Shuningdek, Ashurov A., Djalilov N. hamda Urinov B. (2021) o'z tadqiqotlarida zamonaviy korporativ menejment tizimi kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili hamda strategik ahamiyatini asoslab beradilar [6].

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ menejmentning mohiyati, uning nazariy asoslari hamda asosiy tushunchalarini ilmiy jihatdan yoritish maqsadida sifat (qualitative) tadqiqot metodologiyasidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy bazasini korporativ menejment va korporativ boshqaruv sohasidagi xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, ilmiy maqolalari va xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari

tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv usuli qo'llanilib, korporativ menejment aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlari, kuzatuv kengashi, ijroiya organi va boshqa manfaatdor tomonlari o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oluvchi yaxlit boshqaruv tizimi sifatida o'rganildi. Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida korporativ menejment va korporativ boshqaruv tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlari tahlil qilindi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ menejment tushunchasi korporativ boshqaruvga nisbatan torroq mazmunga ega bo'lib, u asosan korporatsiyaning kundalik va strategik faoliyatini tashkil etish, resurslarni boshqarish hamda korporativ maqsadlarga erishishni ta'minlash bilan bog'liq boshqaruv mexanizmlarini qamrab oladi. Korporativ boshqaruv esa aksiyadorlar, kuzatuv kengashi, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi kengroq institutsional tizim hisoblanadi.

Korporativ menejmentning evolyutsiyasi mulkchilik va boshqaruv funksiyalarining ajralishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. XX asr boshlarida yirik aksiyadorlik kompaniyalarining shakllanishi natijasida aksiyadorlarning operatsion boshqaruvdagi ishtiroki kamayib, professional menejerlarning roli ortib bordi. Natijada korporativ menejment kompaniyaning strategik maqsadlarini amalga oshiruvchi muhim boshqaruv instituti sifatida shakllandi.

Agentlik nazariyasi, manfaatdor tomonlar nazariyasi hamda styuardship nazariyasining korporativ menejmentga oid yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, agentlik nazariyasi menejerlar va aksiyadorlar manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni kamaytirishga qaratilgan bo'lsa, manfaatdor tomonlar nazariyasi korporatsiyaning barcha manfaatdor subyektlar oldidagi javobgarligini ustuvor deb hisoblaydi. Styuardship nazariyasi esa menejerlarni tashkilot manfaatlarini himoya qiluvchi mas'ul shaxslar sifatida talqin qiladi. Zamonaviy aksiyadorlik jamiyatlarida ushbu nazariyalarning alohida emas, balki kompleks qo'llanilishi kuzatilmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, korporativ menejmentning asosiy elementlari sifatida strategik rejalashtirish, tashkiliy tuzilmani shakllantirish, risklarni boshqarish, korporativ nazorat, axborot shaffofligi hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali kommunikatsiyalarni yo'lga qo'yish ko'rsatildi. Mazkur elementlarning o'zaro uyg'unligi korporatsiyaning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Korporativ boshqaruv va korporativ menejmentning o'zaro bog'liqligi

1-rasm: Korporativ boshqaruv va korporativ menejment tushunchalarining o'zaro bog'liqligi va qiyosiy tavsifi¹


Ushbu rasmda korporativ boshqaruv va korporativ menejmentning o'zaro bog'liqligini taqqoslovchi

1 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi



konseptual matritsani ko'rish mumkin. Rasmda korporativ boshqaruv va korporativ menejmentning asosiy farqlari hamda ularning korporatsiya faoliyatidagi o'zni tizimli ravishda aks ettirilgan. Tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ menejmentning samaradorligi, birinchi navbatda, kuzatuv kengashi va ijroiya organlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti, qarorlar qabul qilish jarayonlarining shaffofligi hamda strategik boshqaruv mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liqligini ko'rsatdi. Ayniqsa, xalqaro korporativ boshqaruv standartlarini joriy etgan kompaniyalarda menejment faoliyatining samaradorligi va investitsion jozibadorlik darajasi yuqoriroq shakllanishi kuzatiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy korporativ menejmentning mazmuni faqat moliyaviy natijalarga erishish bilan cheklanmaydi. Hozirgi sharoitda menejment tizimi korporativ ijtimoiy mas'uliyat, ekologik barqarorlik, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish kabi yo'nalishlarni ham qamrab olmoqda.

Korporativ menejment korporatsiyaning strategik maqsadlariga erishish, resurslardan samarali foydalanish va manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv faoliyatlari majmuasi hisoblanadi. 2-rasmda korporativ menejmentning beshta muhim elementi ajratib ko'rsatilgan bo'lib, ular strategik boshqaruv, risklarni boshqarish, ichki nazorat tizimi, axborot shaffofligi va korporativ kommunikatsiyalardan iborat (2-rasm).



2-rasm. Korporativ menejment elementlarining korporatsiya samaradorligiga ta'sir mexanizmi

2-rasm: Korporativ menejmentning korporativ samaradorlikka ta'sir yo'nalishlari²

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korporativ menejmentning alohida elementlari korporatsiya faoliyatining turli yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatadi, biroq ularning umumiy natijasi korporativ samaradorlikning ortishida namoyon bo'ladi.

Strukturaviy tahlil natijalariga ko'ra, investitsion jozibadorlik darajasi va korporativ menejment sifati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Zamonaviy investorlar investitsiya qarorlarini qabul qilishda nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarni, balki boshqaruv sifati, shaffoflik, axborot ochiqligi va korporativ javobgarlik darajasini ham hisobga oladilar. Korxonalarda korporativ menejment mexanizmlarining rivojlanganligi investorlar uchun axborot assimetriyasini kamaytiradi hamda investitsion risklarni pasaytiradi. Natijada investorlarning korporatsiyaga bo'lgan ishonchi ortadi va qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi (1-jadval).

1-jadval

Korporativ menejment va investitsion jozibadorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik³

| Korporativ menejment omili | Investorlarga ta'siri |
|-------------------------------|---|
| Shaffof hisobot tizimi | Axborot ishonchligini oshiradi |
| Hisobdorlik tamoyili | Boshqaruv risklarini kamaytiradi |
| Mustaqil nazorat mexanizmlari | Investorlar manfaatlarini himoya qiladi |
| Strategik rejalashtirish | Uzoq muddatli istiqbolni namoyish etadi |
| Risk-menejment tizimi | Investitsiya xavfini pasaytiradi |

2 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi

3 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatdiki, korporativ menejment darajasi yuqori bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari kapital bozorlarida nisbatan yuqori investitsion jozibadorlikka ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, korporatsiyaning bozor qiymati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ menejmentning zamonaviy modeli qisqa muddatli moliyaviy natijalarga emas, balki korporatsiyaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga yo'naltirilganligi aniqlandi. Korporativ menejmentning strategik xarakteri kompaniyaning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan korporativ menejment quyidagi yo'nalishlarda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi:

- korporativ strategiyani uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirish;
- risk va inqirozlarni boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirish;
- innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash;
- investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ishonchli munosabatlarni shakllantirish;
- korporativ qiymatning uzluksiz o'sishini ta'minlash.

Natijada korporativ menejment korporatsiyaning nafaqat bugungi iqtisodiy natijalarini, balki kelgusidagi rivojlanish salohiyatini ham belgilovchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ menejmentning quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etildi: **korporativ menejment** — bu aksiyadorlik jamiyatining strategik maqsadlariga erishish, korporativ resurslardan samarali foydalanish, manfaatdor tomonlar manfaatlarini muvofiqlashtirish va korporatsiyaning uzoq muddatli qiymatini oshirishga qaratilgan boshqaruv faoliyati hamda boshqaruv mexanizmlari tizimidir.

Mazkur ta'rif korporativ menejmentning zamonaviy mazmunini aks ettirib, uning strategik, tashkiliy, nazorat va qiymat yaratish funksiyalarini yagona tizim doirasida birlashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ menejmentning mohiyati, nazariy asoslari, funksiyalari, tamoyillari hamda uning korporativ samaradorlik, investitsion jozibadorlik va barqaror rivojlanishga ta'siri o'rganildi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi.

Birinchiidan, korporativ menejment aksiyadorlik jamiyatining strategik va operatsion faoliyatini boshqarishga qaratilgan murakkab boshqaruv tizimi bo'lib, u korporativ boshqaruv tizimining amaliy ijro mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Korporativ boshqaruv aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solsa, korporativ menejment ushbu munosabatlar doirasida korporativ maqsadlarga erishishni ta'minlaydi.

Ikkinchiidan, korporativ menejmentning evolyutsiyasi korporatsiyalar rivojlanishi, mulkchilik va boshqaruv funksiyalarining ajralishi hamda global raqobatning kuchayishi bilan bog'liq holda takomillashib borgan. Natijada zamonaviy korporativ menejment faqat operatsion boshqaruv vositasi emas, balki korporativ qiymat yaratishga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv konsepsiyasiga aylangan.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ menejment samaradorligini oshirish maqsadida strategik boshqaruv va risk-menejment tizimlarini yanada takomillashtirish lozim.

Korporativ qarorlar qabul qilish jarayonida shaffoflik va hisobdorlik tamoyillarini kuchaytirish orqali investorlar ishonchini oshirish maqsadga muvofiq.

Korporativ menejment tizimiga zamonaviy raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralishi zarur.

Kuzatuv kengashi va ijroiya organlari faoliyati o'rtasidagi vakolatlar muvozanatini takomillashtirish korporativ nazorat mexanizmlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro korporativ boshqaruv standartlari va ilg'or xorijiy tajribalarni aksiyadorlik jamiyatlari amaliyotiga kengroq tatbiq etish investitsion jozibadorlik hamda korporativ raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi.

Shunday qilib, korporativ menejment aksiyadorlik jamiyatlarining samarali faoliyat yuritishini, investitsion jozibadorligini oshirishni va uzoq muddatli qiymat yaratishini ta'minlovchi muhim boshqaruv instituti sifatida namoyon bo'ladi. Uning zamonaviy tamoyillar asosida takomillashtirilishi milliy korporativ sektorning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Berle A.A., Means G.C. *The Modern Corporation and Private Property*. – New York, 1932.
2. Jensen M.C., Meckling W.H. *Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure*. – *Journal of Financial Economics*, 1976.
3. Freeman R.E. *Strategic Management: A Stakeholder Approach*. – Boston, 1984.
4. Monks R.A.G., Minow N. *Corporate Governance*. – Wiley, 2011.
5. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R. *Investor Protection and Corporate Governance*. – *Journal of*



- Financial Economics*, 2000.
6. Ashurov Z.A., Djalilov F.A., Urinov B.N. *Zamonaviy korporativ boshqaruv (xorijiy tajriba): o'quv qo'llanma*. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. – 245 b.
 7. Urinov B.N., Kenjayeva U.F. *Korporativ boshqaruv: darslik*. – Toshkent: OOO "Diadema Nur Servis", 2024. – 405 b.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100